

"MIFTAHU-L-ULUM" ASARIGA YOZILGAN SHARHLARNING O'ZRES FA SHI  
QO'LYOZMALAR FONDIDA SAQLANAYOTGAN QO'LYOZMA NUSXALARI  
HAQIDA

Akmalxon Akmalxonov

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti*

*kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari*

*bo'yicha falsafa doktori, PhD (91)0099252*

Abu Ya'qub Sakkokiy birinchi va mashhur asari bo'lgan "Miftahu-l-ulum" hijriy 595- (milodiy 1205 yil) yillardan keyin yozilgan.

"Miftahu-l-ulum" asari yozilganidan keyin juda mashhur bo'lib, arab tili o'qitiladigan madrasalarda asosiy darsliklardan biri sifatida keng foydalanilgan. Bu asarga ehtiyoj katta bo'lganligi sababli undan ko'p sonli nusxalar ko'chirilgan.

O'zRes FA SHI qo'lyozmalar fondida "Miftahu-l-ulum"ga yozilgan quyidagi sharhlar saqlanadi. Bular:

6016 raqamli qo'lyozma "Miftahu-l-ulum" asarining uchinchi qismi "Ma'nolar ilmi" (علم المعاني)ga yozilgan sharh. Sharh muallifi Mir Sayyid Sharif bo'lib, sharh "Miftah sharhi" (شرح مفتاح) deb nomlangan. Muallifning to'liq ismi Ali ibn Muhammad ibn Ali Sharif Hasaniy Jurjoniy (1339-1413). Sharh mundariyasi asar boshida keltirilib, sahifa raqami qizil siyoh bilan berilgan. Allohga hamd va payg'ambar alayhissalomga salovotdan keyin sharh muallifi "Miftahu-l-ulum" asarining uchinchi qismini sharh qilayotgani, undagi sirlar xazinasini bayon qilishni maqsad qilganini aytgan<sup>24</sup>. "Miftahu-l-ulum" asaridan olingan iqtiboslarni "Musannif aytgan" (قال المصنف) birikmasi bilan bergan. Qolgan o'rinlarda "aytgan" (قال) yoki "uning gapi" (قوله) so'zlari bilan keltirgan. Sharh boshlashdan oldin Sayyid Sharif Abu Ya'qub Sakkokiyning asar uch qismdan tashkil topganligi, birinchi qismda sarf, ukkinchi qismda nahv, uchinchi bo'limda ma'nolar ilmini bayon qilganligi haqidagi jumllarini keltirgan<sup>25</sup>. Sharh oxirigacha to'liq emasligini 160b varaqqacha mavjud qismidan, shu varaqdagi "unga" (عليه) poygiridan bilib olish mumkin. Sharh 238-varaqda "So'zni go'zal ifodalash ilmi" (علم البديع) bilan tugallanganligini mundarijadan bilib olish mumkin. Sharhning mavjud qismida yozilgan sana, kim tomonidan ko'chirilganligi haqida ma'lumot uchramaydi. Balki bu ma'lumotlar sharhning oxirida berilgan, ehtimol.

5831 raqamli qo'lyozma "Miftahu-l-ulum" asarining uchinchi qismi "Ma'nolar ilmi" (علم المعاني) ga yozilgan sharh. Sharh muallifi Mir Sayyid Sharif bo'lib, sharh "Miftah sharhi" (شرح مفتاح) deb nomlangan. Bu raqamli qo'lyozma 6016 raqamli qo'yozmaning yana bir boshqa nusxasi hisoblanib, satr soni 25 ta (6016 raqamli qo'yozmada satr soni 23 ta), mundarija ko'rsatilmaganligi bilangina farq qiladi. Bu qo'lyozma oxirigacha saqlangan bo'lib, ko'chirib bo'lingan sanasi 803 hijriy yil, Shavvol oyi o'rtalarida tugaganligi fors tilida qayd etilgan. Lekin xattot ismi keltirilmagan.

<sup>24</sup> 6016 raqamli qo'lyozma, 1b.

<sup>25</sup> 6016 raqamli qo'lyozma, 2a.

5628 raqamli qo'yoyma "Miftahu-l-ulum" asarining uchinchi qismi "Ma'nolar ilmi" ( علم المعاني) ga yozilgan sharh. Sharh muallifi Sa'diddin Taftazoniy bo'lib, sharh "Miftahu-l-ulum" sharhi" (شرح مفتاح العلوم) deb nomlangan. Muallifning to'liq ismi Abu Said Mas'ud ibn Umar ibn Muhammad Taftazoniy (1322-1390). Sharhda "Miftahu-l-ulum" asari muallifining to'liq ismi qayd etilgan. Muhim jihati, سراج الدين "dinning chirog'i" deb xalq tomonidan berilgan unvon qolgan manbalarda uchramagan "Ma'nolar chirog'i" (سراج المعاني) shaklida keltirilgan<sup>26</sup>. Qo'lyozmada Sakkokiy jumlasiga ishora sifatida "uning gapi" (قوله) so'zi ba'zi o'rinlarda qizil siyoh bilan berilgan bo'lsa, aksariyat o'rinlarda qora siyoh bilan yozilgan. Sharh to'liq holda yetib kelmagan. Sharh la varaqdan 179b varaqqacha saqlangan bo'lib, yozilgan sana, xattot ismi, mundarija keltirilmagan. Sharh hajman katta bo'lib, bir sahifasida 27 satr joylashgan.

6418 raqamli qo'yoyma "Miftahu-l-ulum" asarining uchinchi qismi "Ma'nolar ilmi" ( علم المعاني)ga yozilgan sharh. Sharh muallifi Sa'diddin Taftazoniy bo'lib, sharh "Miftahu-l-ulum" sharhi" (شرح مفتاح العلوم) deb nomlangan. 6418 raqamli qo'lyozma 5628 raqamli qo'lyozmaning nisbatan to'liqroq nusxasi hisoblanadi. Mazkur qo'lyozmaning 235 varog'i saqlangan. Sharh oxirigacha yetib kelmagan. Sharh ko'chirib bo'lingan sana, xattot ismlari keltirilmagan. ehtimol, mazkur ma'lumotlar sharhning oxirida qayd etilgan.

8397 raqamli qo'yoyma "Miftahu-l-ulum" asarining uchinchi qismi "Ma'nolar ilmi" ( علم المعاني) ga yozilgan sharh. Sharh muallifi Mir Sayyid Sharif bo'lib, sharh "Miftah sharhi" (شرح مفتاح) deb nomlangan. Sakkokiyga ishora hisoblanuvchi jumalar "uning gapi" (قوله) so'zining bo'rttirilgan qora siyoh bilan qolgan so'zlardan ajratilgan. Mazkur raqamli qo'lyozma 6016 raqamli qo'lyozmaning yana bir nusxasi bo'lib, undan satr soni 16, qizil siyoh ishlatilmaganligi bilangina farq qiladi. Mazkur sharhning nusxasi to'liq emas, 158 varaq saqlanib qolgan. Sharh yozil bo'lingan sana, xattot ismlari keltirilmagan. Mazkur ma'lumotlar sharhning oxirida qayd etilgan bo'lishi mumkin.

9035 raqamli qo'yoyma "Miftahu-l-ulum" asarining uchinchi qismi "Ma'nolar ilmi" ( علم المعاني) ga yozilgan sharh. Sharh muallifi Sa'diddin Taftazoniy bo'lib, sharh "Miftahu-l-ulum" sharhi" (شرح مفتاح العلوم) deb nomlangan. Mazkur qo'lyozmaning boshi saqlanmagan bo'lsada, qolgan qismi oxirigacha saqlangan. Sakkokiyga ishora bo'lgan iqtibos "uning so'zi" (قوله) so'zi bilan berilgan. Mazkur so'z qolgan so'zlardan qizil siyoh bilan ajratilgan. Sahifada satr soni 21 ta bo'lib, sahifalar oxirida poygir izchil qo'yilgan. Sharhning oxirgi sahifasi ustida "hamma varaqlar 292" (جمع أوراق 292) yozuvi qizil siyohda saqlanib qolgan. Sharhning mazkur sahifasida xattotga ishora qiluvchi "zaif banda qo'lida" (على يد العبد) (الضعيف) iborasi keltrilgan. Bu iboradan keyin xattotning ismi Ahmad ibn Ibrohim Bakbazoriy ekanligi keltirilgan<sup>27</sup>. Tugallangan sana to'liq keltirilgan. U asr namozi vaqtida, shanba kuni, Zulqa'da oyi, 882 hijriy yil.

Abu Ya'qub Sakkokiy uchinchi bo'limda balog'at ilmlarini birinchilardan bo'lib, tartib asosida bayon qilganligi bilan arab tilshunosligida katta iz qoldirgan. Shu sababli "Miftahu-l-ulum" asarining birinchi va ikkinchi bo'limlaridan ko'ra uchinchi qismi soha

<sup>26</sup> 5628 raqamli qo'yoyma, 1b.

<sup>27</sup> 9035 raqamli qo'yoyma, 269b.



mutaxassislari o'rtasida ma'lum va mashhur bo'lib, sharhlarning aksaryati uning mazkur bo'limini qamrab olgan.